

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Jismoniy madaniyat fakulteti

Fiziologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrası

o'qituvchisi A. M. JABBOROVNING

**“OIV/OITS kasalligi va undan saqlanish choralari” mavzusi
bo`yicha tayyorlagan**

Referati

N a m a n g a n – 2 0 1 5 y i l

OIV/OITS kasalligi va undan saqlanish choralari.

Mashg'ulot rejasi:

1. 1-dekabr Butun jaxon OITSGa qarshi kurash kuni!
2. OIV virusini inson organizmiga salbiy ta'siri.
3. OIV infeksiyasi profilaktikasi.
4. OITS asr vabosi.

Sog'lom turmush tarzi - bu avvalo qarilikkacha bo'lgan uzoq yillargacha har bir kishini sog'ligini mustahkamlovchi va taminlovchi turmush tarzining kechishidir. Insonni sog'lom turmush tarzini kechirishini bosh ko'rsatkichi - bu avvalo uning fizik rivojlanish holati va unga bog'liq o'zini umumiy his etishi, kayfiyati, shahsiy hayotidagi, o'qishidagi, ishidagi muvaffaqiyatlari yoki muvaffaqiyatsizliklaridir.

Jaxonda OIV infeksiyasi tarqalish muammosi xozirgi vaqtda insoniyatning xavfsizligiga taxdid qilayotgan eng katta xavflardan biridir. Ushbu rad etib bo'lmaydigan xolat birlashgan millatlar tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan uning asos bo'luvchi xujjati «OIV/OITSGa qarshi kurash ishiga tarafdorlik Dekloratsiya»sida e'tirof etilgan.

OIV/OITS pandemiyasi ko'rilayotgan qarshi kurash choralarga qaramay faol rivojlanmoqda. Jaxon sog'liqni saqlash tashkilotining baxolashicha 2013 yilda butun dunyoda xammasi bulib 35 milliondan ortiq kishiga infeksiya yuqqan. Xozirgi vaqtda Uzbekistonda OIV infeksiyasi axolining turli guruxlari orasida aniqlanmoqda, OIV infeksiyasini yuqtirgan ayollar sonining o'sishi, shuningdek OIV infeksiyasini yuqtirgan onalardan jismoniy nosog'lom, aqlizaif, nogiron bolalar tug'ilish xolatlari kuzatilmokda.

Anatomo-fiziologik xususiyatlarga ko'ra ayollar OIV infeksiyasi yuqishi jixatidan eng zaif gurux xisoblanadi. Yuzaga kelgan vaziyat OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi sayi-xarakatlarni xamda uning oqibatlarini bartaraf etishni faollashtirish zarurligini taqozo etadi. Ushbu xolatlarni yaxshilash va kasallikni

tarqalishini oldini olishning samaradorligini oshirish maqsadida «Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish tug'risida» O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 23 sentyabr 353 sonli qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun 5 bob 28 moddadan iborat bulib, bunda barcha chora-tadbirlar mujassamlashtirilgan. OIVni yuqtirib olganlarga tibbiy yordam ko'rsatish ular OITSGa qarshi kurashish markazlarida va davolash profilaktika muassasalarida yashash joyi buyicha dispanser xisobiga ko'yilganidan keyin amalga oshiriladi. OIVni yuqtirib olganlarga tibbiy yordam ko'rsatish OIV infeksiyasini maxsus davolashni, shuningdek OIV infeksiyasi bilan bog'liq kasalliklar rivojlanishining oldini olishni, ularga tashxis qo'yish xamda ularni davolashni o'z ichiga oladi.

OIV infeksiyasini yuqishi va kechishida bemorning yoshi xam muxim ahamiyatga ega. OIV yuqtirganlarning 90% ni 20-45 yoshdagilar tashkil etadi, bu yoshdagilarga OIV asosan jinsiy yo'l yoki giyoxvand moddalarni tomir orqali qabul qilishda yuqadi. Kasallik yosh bolalar va keksa yoshdagilarda og'ir kechadi, chunki ularda ko'pincha immun tizimi to'la shakllanmagan yoki sust bo'ladi. OIV yuqqan bemorlarda immun tizimi faoliyatining susayganligi va SD4 xujayralar sonining kamayganligi sababli ikkilamchi kasalliklar: o'pka sili, kandidoz, oddiy herpes, sitomegalovirusli infeksiya, toksoplazmoz va boshqa xastaliklar og'ir kechadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakat miqyosida yuqumli kasalliklarga qarshi kurash va sog'lom avlodni shakllantirish borasida keng qamrovli tadbirlar amalga oshirildi. Natijada bakterial va virus etiologiyali yuqumli kasalliklarning keskin kamayishiga, ularning ayrimlarini butunlay yo'qotilishiga erishildi. Xukumatimiz tomonidan xar tomonlama kamol topgan, manan boy, axloqan yetuk, jismonan baquvvat intellektual rivojlangan komil insonni shakllantirish borasida ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Lekin shunga qaramay keyingi yillarda axoli, ayniqsa bolalar o'rtasida OIV infeksiyasining qayd etilayotgani barchani tashvishga solmoqda. Virus bemor odam organizmida butun xayoti davomida saqlanib, nisbatan ko'p miqdorda qon, urug' suyuqligi, qin ajratmasi va ko'krak sutida uchraydi. OIV ni yuqtirib olgan kishilar uzoq yillar davomida o'zlarini sog'lom xis qiladilar, lekin

virus quqqan davrdan boshlab virus tashuvchi bo'lib qoladilar va bular umr davomida infeksiya manbai bo'lib qoladilar. OITS kasalligiga chalinayotganlar soni 2013 yilning yanvar oyigacha oshib borgan bulsa, joriy yildan kamayish qayd etila boshladi, kasallikning kamayishi asosan bolalarda va katta yoshlarda sodir bo'lmoqda. Lekin kasallik aniqlanish miqdori migrantlar (chet davlatlarda noqonuniy ishlab keluvchilar) o'rtasida ko'paymoqda. SHu bilan birga sha'riy nikox bilan oila qurganlar o'rtasida xam kasallikni yuqtirib olish xolatlari aniqlanmoqda. Bunga sabab nikox qurayotgan yigitlarning Rossiya, Qozog'iston va boshqa davlatlarda bir necha yil ishlab, shu davrda zinoga yo'l qo'yilgani va qaytgandan so'ng qonuniy tibbiy ko'rikdan o'tmasdan, litsenziyasi bo'lmagan, chalasovod, soxta mullalar tomonidan nikox o'qilishi bilan turmush qurgani orqali aniqlanmoqda va shu oilalarning xomiladorlik boshlanish davrlarida bemorlar aniqlanmoqda. Soxadagi muammolardan asosiysi bulib, shu tibbiy ko'riksiz oila qurayotganlar va odam (bemor)larning o'zida kasallik borligini bila turib yashirish, uyalish va o'z vaqtida laboratoriya ko'rigidan o'tmaslik sabab bo'lmoqda, Prezidentimiz tomonidan 2014 yilni «Sog'lom bola yili» deb nomlanishi barcha tibbiy xodimlar zimmasiga ulkan vazifalar yuklaydi va keng qamrovli tadbirlar o'tkazish, barcha axoli o'rtasida yuqumli kasalliklarni ayniqsa OITS kasalligini keskin kamayishiga barcha kuch quvvati bilimini sidqi dildan sarf qilinishini taqozo etadi. Kasallikning kamayishida nafaqat tibbiyot xodimlari balki barcha axoli qatlami uz xissasini qo'shishi shart. Sog'lom turmush tarzi bilan yashash, oilasiga sadoqat, giyoxvandlik, ichkilikbozlik va boshqa zararli illatlardan voz kechish orqali OIV infeksiyasi va boshqa illatlardan xoli bo'ladi. Viloyatimiz OITSGa qarshi kurash markazi mutaxassislari, shaxar va tumanlar tibbiyot xodimlari tomonidan axolining barcha qatlamlarida muntazam sanitariya targ'ibot tadbirlari olib boriladigan jumladan televideniya ommaviy axborot vositasi orqali xalq ta'limi, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, ishlab chiqarish va maishiy xizmat xodimlari, maxalla fuqarolari yig'inlarida ma'ruza va suxbatlar, davra suxbatlari o'tkaziladi.

OITS kasalligi o'ta xavfli yukumli kasallik xisoblanib, kasallikni viruslar keltirib chiqaradi. Kasallikning xavflilik darajasi shundaki, OIV virusini yuqtirgan kishi ancha vaqtgacha o'zini sog'lom xisoblaydi va shu tariqa boshqalarga xam

kasallikning yuqishiga sababchi bo'ladi.

OIV virusi tashqi muhitga chidamsiz xisoblanadi, virus inson organizmidagina yashaydi va ko'payadi, inson tanasidan tashqarida tezda nobud bo'ladi. Suyuq muhitda 23-27 G xaroratda faolligini 15 kun davomida saqlab tursa, 36-37 G da 11 kun yashay oladi. Qonda virus yillab yashashi mumkin, muzlatilgan zardobda esa uning faolligi 10 yilgacha saqlanadi. OIV dezinfeksiya vositalari ta'sirida tezda nobud bo'ladi. Virus issiqlikka juda ta'sirchan va 100 G xaroratda darhol parchalanadi, 56 G da esa yarim soatda nobud bo'ladi.

OIV oqibatida kelib chiqadigan kasallik OIV-infeksiya deb ataladi. OIV-infeksiya OIVning yuqishi davridan boshlanadi va inson o'limiga qadar ko'p yillar davom etadi. Ushbu kasallikning tarqalishida bemorlardan ko'ra virus tashib yuruvchilar xavfli xisoblanadi. OIV-infeksiya asta –sekin insonning immun tizimini zaiflashtiradi va kasallikning so'ngi bosqichi. Ortirilgan immun tanqisligi sindromi (OITS) ni yuzaga keltiradi.

«Asr vabosi» deya nom olgan OITS va Giyoxvandlik kasalliklari bugungi kunga kelib, insoniyatni chuqur o'ylga toldiradigan da'vosiz dard sifatida yer yuzida tobora ildiz otib bormoqda.

Kasallik, 1981 yilda AQSHda aniqlangan bo'lib, xozirgi kungacha bu darddan dunyo bo'yicha 25 mlndan ortiq inson xalok bo'lgan, 40 mlndan ortiq odam shu kasallik bilan yashab kelmoqda.

Kasallik xozirda asosan zararsizlantirilmagan tibbiy va maishiy jixozlar orqali, qon quyish, pala – partish jinsiy aloqada bo'lish va onadan bolaga yo'ldosh yoki ko'krak suti orqali yuqishi mumkin bo'lib, bugunda asosan tomirga giyoxvand moddalar qabul qiluvchilar va tartibsiz xayot kechiruvchilar orasida ko'payib bormoqda.

Kasallikka tashxis ko'yishda laboratoriya taxlillar natijasi bilan birgalikda uzoq muddatli yo'tal, keng tarqalgan kichimali teri yallig'lanishi, qaytalanuvchi uchug'li toshmalar, og'iz tomok soxasidagi zamburug'li toshmalar, limfa tugunlarining kattalashishi, bir oydan ortiq surunkali diareya, bir oydan ortiq tuxtovsiz isitma, qisqa vaqt ichida tana vaznining 10% dan ortiq yo'qolishi va boshqa klinik ko'rinishlarga

asoslanildi.

Insonlar OITS xaqida gapirganda odatda juda qo'rqadilar, lekin aynan bu kasallik xaqida, uni yuqishi va oldini olish yo'llari xaqida turli ma'lumotga ega emaslar. OITSni yuqishi uchun bemorning biron bir biologik suyuqligi (qon, jinsiy a'zolar suyukliklari va x), boshqa insonni zararlangan teri va shilliq qavatiga tushsa, yuqish uchun xavf tug'diradi. VICH (OIV)-odam immunotancisligi virusi bilan zararlangan xomilador ayollarda beixtiyor bola tashlash, tug'ilgan chaqaloqning og'irlik miqdori kamligi, o'lik yoki oyi to'lmay chala tug'ilishlar, shuningdek jinsiy aloqa orqali yuqadigan tanosil kasalliklarining birgalikda kechish xollari ko'plab uchraydi.

SHu sababli insonlar agar me'yoriy zararsizlantirilgan yoki bir martalik tibbiy jixozlardan va shpritslardan, individual soqol olishda va boshqa maishiy jixozlardan xamda sog'lom turmush tarzini tanlab, giyoxvandlik, foxishalik va boshqa alomatlardan saqlansa, OITSni yuqish xavfi bartaraf etilgan bo'lardi. OITS insonlar orasida mavjud ekan, undan qurqish emas, balki ximoyalanish va kasallikni oldini olishni bilishi lozim.

Vatanimizning porloq istiqboli siz kabi o'smir yoshlarning uklan va jismonan yetukligiga, ilm-ma'rifatga, zukkoligiga bog'lik. SHundagina jamiyatimiz sog'lom, pok niyatli, dunyo qarashi o'tkir, iymoni butun, mexr-oqibatli, xush xulq deb atalmish insoniy fazilatli kishilarga boy bo'ladi.

OIV infeksiyasi profilaktikasining 6 ta asosiy yo'nalishlari mavjud bulib ular quyidagilardan iborat

SHifoxona ichi infeksiyasini oldini olish

Donor qoni xavfsizligini ta'minlash

OIVni onadan bolaga o'tishini oldini olish

OIV infeksiyali kishilarga tibbiy yordamni tashkil etish

xulk-atvori buzuvq axoli guruxlari bilan ishlash, ularni o'qitish va qayta tarbiyalash.

Agar soglom turmush tarzi bilan yashasak, xech qachon yomon illatli

kasalliklarga duchor bo'lmaymiz, turmushimiz obod, farzandlarimiz sog'lom va xayotimiz yuksak darajada kechadi.

Adabiyotlar

1. Raxmon Arziqulov . Sog'lom turmush tarzi asoslari . “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2009 y.
2. WWW.Ziyonet.uz
3. WWW.Google.com